



SUG'URTALOVCHILARNING INVESTITSION FAOLIYATINI BAHOLASHDA XITOY TAJRIBASI

Baratova Dinora Alisherovna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti "Moliya bozori va sug'urta ishi" kafedrasini dotsenti gulzoda20@mail.com

Olmosova Munisa Sherxon qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti 3-bosqich talabasi munisaolmosova@gmail.com

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 4 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss4/a10	Maqolada milliy iqtisodiyotda investitsiya risklarini samarali boshqarishda sug'ortalash usulining o'mi bayon etilgan. Sug'urta kompaniyasining raqobatbardoshligiga va investitsion potentsialiga ta'sir etuvchi omillar tahlili ko'rib o'tilgan. Mazkur ma'lumotlarga tayangan holda sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati haqida shuningdek, investitsiya risklarini sug'urta orqali boshqarish mexanizmlari to'g'risida ilmiy va amaliy xulosalar shakllantirilgan.
KEYWORDS	<i>Sug'urta, investitsion faoliyat, risklarni boshqarish, investitsiya risklari, sug'urta kompaniyasining investitsion potentsiali, investitsiya loyihibarini baholash va tahlil qilish.</i>

Kirish

Jahon iqtisodiyotida global, milliy, mintaqaviy va hududiy investitsion muhit jozibadorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish bugungi kunda o'ta dolzarb masalalardan sanaladi. Shuningdek, xalqaro nufuzli moliya muassasalari, xususan, Jahon banki, Xalqaro valyut fondi, BMTning Taraqqiyot dasturlari singari xalqaro tashkilotlar tomonidan investitsion muhit jozibadorligini baholash va samarali investitsiya qarorlarini qabul qilish, erkin iqtisodiy zonalarning iqtisodiy-huquqiy maqomini oshirish va ularni optimal joylashtirish, investorlar uchun qulay muhit yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu maqsaddan kelib chiqib, biz mamlakatimiz investitsion muhit jozibadorligini oshirishda Xitoy va Singapur tajribasini o'rganib chiqamiz.

O'zbekistonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish, investorlarning investitsion siyosat izchilligiga ishonchini mustahkamlash va davlat tuzilmalarining investorlar bilan ishlashdagi mas'uliyatini oshirish, investitsiya loyihibarini amalga oshirish jarayonlarini boshqarish, balanslashgan investitsion siyosatni shakllantirish, investitsion faoliyikni ta'minlash orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nالishlari va rivojlanish dasturlarini belgilashda albatta, asosiy e'tibor yanada qulay investitsiya muhitini yaratishga va xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishga qaratilayotganligini ta'kidlash kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "Investitsiya - bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning harakatlantiruvchi yuragi, desak, mubolog'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi" [1,2] deb qayd etgani e'tiborga molikdir. Chunki faol va samarali investitsiya siyosatini amalga oshirishli va investitsiya muhitining investorlar uchun yanada qulay bo'lishiga erishish - mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Koronavirus pandemiyasi xalqaro kapital oqimiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgan sharoitda milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimiz investitsiya salohiyatini har tomonlama namoyon etish zaruriyati yuzaga chiqmoqda. Investorlar uchun koronavirus inqirozi sharoitida sarmoya kiritishdan oldin investitsiya loyihibariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan risklarni tahlil qilish, risklarni

baholash va samarali boshqarish, loyiha salbiy ta'sir etuvchi omillarni o'z vaqtida aniqlash va ularning salbiy ta'sirini pasaytirish yuzasidan kerakli chora-tadbirlarni ishlab chiqish masalasi yanada muhim vazifalar qatoridan joy oldi. Yuqoridaqillardan kelib chiqib, zamonaviy va ilg'or tajribalar asosida investitsiya loyihibarini samarali boshqarishda va risklarning salbiy ta'sirini pasaytirishda sug'ortalash usulidan keng foydalishni hozirgi dolzarb vazifalardan biriga aylandi, deb ta'kidlash mumkin.

Maqolani yozish jarayonida investitsiya loyihasi risklarini samarali boshqarishda sug'urta kompaniyalarning o'rni hamda ularning raqobatbardoshligi va investitsion potentsialiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq qilish, tahlil qilish va o'rganish uchun quyidagi usullar q'llanildi, ya'ni teknika, monografik, iqtisodiy va matematik usullar q'llanildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Investitsion muhit jozibadorligini oshirish bo'yicha xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan berilgan ta'riflarga to'xtalib o'tamiz. Jumladan, mahalliy iqtisodchi olimlarning ta'riflarini ko'rib chiqamiz.

Iqtisodchi-olimlardan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlar investitsiya muhitini to'g'risida quyidagilarni ta'kidlab o'tadilar: "Investitsiya muhitni xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltsilik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalishim imko niyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir. Investitsiya muhitni kompleks, ko'p qirrali tushuncha bo'lib, milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o'sish, stagnatsiya), bojxona rejimi, valyuta siyosati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflatsiya sur'atlari, valyuta kursining barqarorligi, tashqi qarzdarlik darajasi kabi ko'rsatkichlarga ega" [1]. Shuningdek, mamlakatdag'i investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmuyi investitsiya muhitini anglatadi.

"Investitsiya muhit" va "investitsiya iqlimi" sinonim tushunchalar sifatida ishlataladi. Bu xususda iqtisodchi-olimlardan D.G'ozbekov va T.Qoraliyev tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan: "Investitsiya iqlimi juda keng ma'noda ishlataligan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma'lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi" [2].

Sug'urtalovchilarning investitsiya portfeli tarkibi [3]

Ko'rsatkichlar	31.12.2020		31.12.2021		O'zgarishi, % da
	mln. so'mda	Jamiga nisbatan % da	mln. so'mda	Jamiga nisbatan % da	
Jami investitsiyalar	3 382 685	100%	3 746 665	100%	+ 10,8%
Depozit qo'yilmalar	1 818 925	53,8%	2 208 573	58,9%	+21,4%
Qimmatli qog'ozlar	958 552	28,3%	1 095 976	29,3%	+ 14,3%
Qarzlar	42 054	1,2%	47 453	1,3%	+ 12,8%
Ko'chmas mulk	285 320	8,4%	247 340	6,6%	-13,3%
Korxona ustav fondida qatnashish	272 143	8,0%	142 203	3,8%	-47,7%
Boshqalar	5 691	0,2%	5 120	0,1%	-10,0%

E.Xazanovching ilmiy ishlarida iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda xorijiy investitsiyalarning roli, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalg qilish shakkari, qulay investitsiya muhitining chet el sarmoyalarinini jalg qilishdani roli tadqiq qilingan hamda xorijiy sarmoyalarni faol jalg qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan [3].

Yu.Leonovaning ilmiy asarlarida Rossiy Federatsiyasi hududlarida investitsion faoliyini ta'minlash va xorijiy kompaniyalarining investitsiyalarni jalg qilish yo'llari va afzalliklari yoritilgan [4].

Investitsion jozibadorlikni aniqlashning muhim shartlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: mintaqalarning tabiy sharoiti, shakllangan ishbilarmonlik muhiti, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'muriy-boshqaruv tamoyillari, aholining tadbirkorlik subyektlarini boshqarishga tayyorligi, tavakkalchilikni anglish va mehnat resurslarining malakasi va turli institutsiyalardan tizimlarning mavjudligi hamda ularning rivojlanishi [5].

Investitsion jozibadorlik potensial investorga mavjud mablag'larni investitsiya qilish maqsadida ma'lum bir investitsiya obyekti boshqalariga qara- ganda qanchalik jozibador ekanligini baholashga imkon beradigan xususiyatlар to'plami hisoblanadi [6]. Investitsion jozibadorlikning oshishi zamonaviy raqobat sharotida kompaniyaning samarali ishlashi, rivojlanishi va o'sishiga yordam beradi [7].

Korxonalarning investitsion jozibadorligi bevosita mamlakatdagi investitsiya siyosatosi va yaratilgan investitsiyalarning muhitiga bog'liq. Xususan, investitsiya muhit uchta qismidan iborat tizim sifatida ko'rib chiqiladi: investitsiya salohiyati, investitsiya riski va qonunchilik shartlari [8]. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda investitsiya jarayoni bozor konyunkturasi ta'siri, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va hajmiga bog'liq [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, omilli tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, dinamikada o'rGANISHI, ma'lumotlarni guruhash, taqqoslash usullaridan foydalananigan.

Tahvil va natijalar muhokamasi. Jahonda xorijiy kapitalni jalg etish bo'yicha mamlakatlararo keskin kurash ketmoqda. Xorijiy investitsiyalar hajmi, uning sifati va qulay shartlardan foydalanan bo rasida rivojlangan mamlakatlarda yildan yilga investitsion muhit jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiladigan innovatsion instrumentlarning turli ko'rinishlari yaratib kelinmoqda. Shular qatorida iqtisodiy rivojlanishi boshqa davlatlarga qaraganda tez sur'atlarda o'sib borayotgan, tovar va xizmatlari dunyoniga barcha o'lkalarida tarqalgan, bugungi kunda uchta eng ko'p tarqalgan so'z – «Made in China», deya e'tirof etilayotgan Xitoyning tajribasini ko'rib chiqamiz.

Xitoysda davlat tomonidan investitsiyalar sohasida amalga oshirilgan islohotlar, qabul qilingan tizimli chora-tadbirlar, ishlab chiqilgan dasturlar va loyihiyalardan tufayli xalqaro bozorlarni zabt etishga muvaffaq bo'lindi. Mazkur davlat 1970-yilda qulay mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishni davlat siyosati darajasidagi eng muhim vazifalardan biri sifatida ko'targan edi. Birinchilardan bo'lib «maxsus iqtisodiy zonalar»ni tashkil

etish bo'yicha qarorlar qabul qildi va ularning rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni muhayyo etdi.

Shuningdek, Xitoy rahbariyati tomonidan rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlari sifatida yengil sanoat va elektronika sohalari tanlab olindi. Ularning to'laqlonli rivojlanishi, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va zaruriy resurslarni xarid qilishi uchun davlat tomonidan subsidiyalar tizimi va «eksport uchun tarmoq» dasturi ishlab chiqildi.

Xitoyning tez sur'atlarda rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan yana bir muhim omil investorlar uchun zarur bo'ladigan, hududlarning imkoniyatlari va sa-lohiyatlarini namoyon etadigan ma'lumotlar bazasini (pasportni) ishlab chiqqanligi va arzon ishchi kuchiga egaligi bilan belgilanadi. Ushbu baza internet-resurs sifatida oshib qo'yilganligi Xitoy korxonalarini uchun xorijiy investitsiyalarining oqib kelishi va biznes hamkorlikning kuchayishini ta'minladi. Bugungi kunda Xitoyning jahon iqtisodiyotidagi mavqeysi hamda iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlashga xizmat qilgan omil ham, aynan, uning ochiqligi, sog'lam imiji va investitsion jozibadorligidir.

Olingan tahvil natijalarini asosida sug'urta kompaniyalarining investitsion potentsiali to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Shuningdek, sug'urta kompaniyalarining investitsiya potentsialiga ta'sir etuvchi omillar tahibili amalga oshiriladi va mazkur ma'lumotlarga tayangan holda sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini va uni rivojlantirish istiqbollarini haqida va eng asosiyisi, investitsiya risklarini sug'urta orqali boshqarish mexanizmlari to'g'risida ilmiy va amaliy xulosa qilish mumkin bo'ladi. Sug'urta kompaniyalarining investitsion jarayonlarda keng ishtiroy etishlari orqali ularning investitsion resurslarining ortishiga va bu esa o'z navbatida, turli investitsiya risklarini sug'urta qilish imkoniyatlarining ortishiga, qolaversa, ular tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlarning kengayishiga va rivojlanishiga erishiladi.

Yugorida keltirilgan tadqiqotlarga tayangan holda, quyidagi ilmiy muammmo mazkur tadqiqotning maqsadi sifatida talqin qilinishi muhimdir. Sug'urta munosabatlarining rivojlanishi bo'sh turgan pul mablag'larning jamlanishi va ulardan nafaqat sug'urtalash maqsadida, balki ularni iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va sohalariga investitsion resurslar sifatida safarbar etilishi mexanizmini tizimli holda tadqiq etilishi lozim. Buning uchun, avvalana bor, hozirda shakllangan sug'urta bozorining miqdor va sifat ko'rsatkichlari tizimli yoritilishidan boshlanishi kerak. Xulosa qilib, hozirda shakllangan sug'urta bozorining miqdor va sifat ko'rsatkichlari tizimli yoritilishi natijasida quyidagilarni qayd etish mumkin:

1) Bugungi kunda O'zbekistondagi sug'urta bozori sug'urta sohasida olib borilayotgan islohotlar va bozor kon'yunkturasini hisobga olgan holda investitsiyalash maqsadlarini amalga oshirish uchun yetarli darajada jozibador bo'lib qolmoqda, deb hisoblash mumkin. So'nggi 10 yil ichida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan jami sug'urta mukofotlari 28,8 foizga o'sganligini va sug'urta mukofotlarining YalMga nisbatli 2010 yildagi 0,22

Ko'rsatkichlar	31.12.2021		31.12.2022		O'zgarishi, % da
	mln. so'mda	Jamiga nisbatan % da	mln. so'mda	Jamiga nisbatan % da	
Jami investitsiyalar	3 746 676	100%	4 751 745	100%	+ 26,8%
Depozit qo'yilmalar	2 208 573	58,9%	2 896 636	61,0%	+31,2%
Qimmatli qog'ozlar	1 095 976	29,3%	1 287 917	27,1%	+ 17,5%
Qarzlar	47 449	1,3%	60 776	1,3%	+ 28,1%
Ko'chmas mulk	247 352	6,6%	358 944	7,6%	+45,1%
Korxona ustav fondida qatnashish	142 203	3,8%	118 221	2,5%	-16,9%
Boshqalar	5 122	0,1%	29 252	0,6%	+471,1%

foizdan 2020 yilda 0,37 foizgacha oshganligini kuzatish muhim bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich Qozog'istondagi (0,82 foiz) va Rossiyadagi (1,44 foiz) ko'rsatkichlar bilan taqqoslanganda hamon past bo'sada, ammo xorij ekspertlar tomonidan yaxshi o'sish salohiyatiga ega, deb baholanmoqda.[4]

2) Sug'urta mukofotlarining tarkibi tahlil qilinganda, 2021 yilda o'tgan yilga nisbatan majburiy sug'urta 17,4 foizga, umumiyligi sug'urta esa 21,6 foizga oshgan bo'sada, hayotni sug'urtalash xuddi shu davorda 61,0 foizga oshganligini guvohi bo'lamic[3]. Albatta koronavirus pandemiyasi davrida inson salomatligi birinchi o'rindagi masala bo'lganligi sababli bunday o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ammo, bugungi kunda yer yuzida yuz berayotgan geosiyosi inqirozlar, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'ttasida vujudga kelayotgan siyosiy keskinliklar, iqtisodiy va ijtimoiy nobarqarorliklar umumiy sug'urta sohasiga ham ko'proq e'tibor berishni talab etmoqda.

3) Sug'urtalovchilarning investitsiya portfeli tarkibi tahlil qilinganda, 2021 yilda ham, 2020 yilda ham sug'urta kompaniyalar o'z investitsiya resurslarining aksariyat qismini (58,9 va 53,8 foizini) bank depozitiga yo'naltirganliklarini va shu asnoda konservativ investitsiya strategiyasini tanlaganliklarini guvohi bo'lmoqdamiz. O'z tabiatiga ko'ra sug'urta iqtisodiyotni barqarorlashtirishga, mamlakatda iqtisodiy o'sishga va jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikni pasaytirishga hissa qo'shishini hisobga oladigan bo'lsak, sug'urta kompaniyalarining investitsiya jarayonlarida yanada faol ishtirokalarini ta'minlash zarurligi yaqqol ko'rindi.

Bundan tashqari, shakllanish manbalaridan qat'iy nazar, sug'urta tashkilotining sug'urta va qarz majburiyatlaridan holi bol'gan hamda qo'shimcha daromad olish maqsadida investitsiya operatsiyalarini amalga oshirish uchun mo'ljalangan moliyaviy resurslarini sug'urta kompaniyalarining investitsiya potensialini deb tushuniladi. Uni aks ettiruvchi ko'rsatkichlarga bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) va bilvosita (egri) omillar ta'sir qildi. Sunday omillar tasnifi quydagi jadvallarda berilgan. Investitsion potentsialini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillar:

- aholining turmush darajasi;
 - mammalakatdagi iqtisodiy holat;
 - davlatning ijtimoiy siyosati;
 - iqtisodiyot sohalarida aholining faolligi;
 - kasbiy malaka darajasi;
 - qayta molijyalashtirish stavkasi qiyimi;
 - sug'urtalovchi o'z mablag'larini yo'naltirgan aktivlar daromadliligi darajasi;
 - sug'urtalovchining investitsion siyosati yo'nalishlari;
 - investitsiyalar ko'lami.
- Jadval ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, sug'urta kompaniyalarining investitsion potentsialini va kompaniya

raqobatbardoshligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: kompaniya aktivlari, ustav kapitali, sug'urta to'lovlar, sug'urta zaxiralari, sug'urta mahsulotlarining turli-tumanligi, sug'urta mukofoti, hududiy bo'limlarning mavjudligi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan sug'urta bozorining kapitalashuvini oshirish milliy sug'urta bozorida sug'urtalovchilarining investitsiya faoliyatida faol qatnashishlariga va ko'proq risklarni sug'urta qilish imkoniyatini beradi, degan xulosaga kelish mumkin. Rivojlangan, zamonaviy va raqobat mavjud bo'lgan sug'urta bozorini shakllantirish respublika iqtisodiyotining barqaror o'sishini kafolati va mamlakat aholisining sug'urta madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Umuman olganda, sug'urtalashdan investitsiya risklarini boshqarish mechanizmi sifatida foydalananining quydagi afzalliklari mavjud:

1. Sug'urta risklarni samarali boshqarish vositasi hisoblanib, riskni aniqlash (identifikatsiya qilish), tahlil qilish va baholash, shuningdek, risk natijasida yetkazilgan zararning o'mini qoplash kabi asosiy bosqichlarni amalga oshirishga imkon beradi;

2. Boshqa risklarni boshqarish usullariga nisbatan sug'urtaning arzonligi va qulayligi;

3. Agar sug'urta kompaniyalarining sug'urta bo'yicha katta risklarni qabul qilish imkoniyatlari cheklangan bo'lsa, u holda sug'urta bozorining boshqa ishtirokchilar o'ttasida tegishli zararni qoplash uchun javobgarlikni qayta taqsimlashning maxsus yondashuvi bilan bartaraf etish imkoniyatining mavjudligi;

4. Sug'urta operatsiyalari bo'yicha ko'pincha soliq imtiyozlari beriladi;

5. Investitsiya risklarini baholash va boshqarish uchun sug'urta kompaniyalarining ekspertlari bilimlari, malakalari va tajribalaridan foydalish orqali risklarni boshqarishga sarflanadigan ortiqcha xarakatlarini oldini olish imkonini beradi;

6. Sug'urta kompaniyalarining investitsion potentsialini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi bevosita va bilvosita omillarni tahlil qilish orqali sug'urta kompaniyalarining raqobatbardoshligi aniqlanadi. Investor uchun ham, sug'urtaluvchi uchun ham birday qiziq bo'lgan savollarga to'g'ri javob olish, xususan, bozorda ishonchli sherik sifatida qaysi sug'urta kompaniyasini tanlashga doir to'g'ri qarorni qabul qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, milliy iqtisodiyotda sug'urta munosabatlarini yanada rivojlanishiga masalasi hozirgi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi, chunki sug'urta munosabatlarining rivojlanishi bo'sh turgan pul mablag'larining jamlanishiga va ulardan nafaqat sug'urtalash maqsadida, balki ularni iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va sohalariga investitsion resurslar sifatida safarbar etilishiga, pirovardida bu tarmoqlar va sohalarning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Reference:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent. 28-dekabr, 2018-yil. www.press-service.uz.
2. Investitsiya faoliyatni va strategik rivojlanish borasidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi xorijiy investitsiyalarni jalg etish agentligi sayti ma'lumoti. <https://invest.gov.uz/uz/mediacenter/news/priority-tasks-of-investment-activity-and-strategic-development-were-discussed/>.
3. Moliya vazirligi sayti ma'lumotlari (Сводные показатели страхового рынка Республики Узбекистан за 2021 год) <https://imda.uz/wp-content/uploads/2022/03/Itogoviy-pokazatel-2021.pdf>.
4. Insurance market: Results and Trends of 2020 and 1Q2021. <https://avestagroup.com/en/2021/07/02/рынок-страхования-итоги-и-тенденции-2020/>.
5. Turgueva A.A. Инвестиционный потенциал страховых компаний и оценка их конкурентоспособности. / Finance and Credit, 2017, volume 23, issue 2, pages 89-109 . <https://cyberleninka.ru/article/n/investitsionnyy-potentsial-strahovyh-kompaniy-i-otsenka-ih-konkurentospesobnosti>.